



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARIDA AXBOROT-TAHLILY YONDASHUV ASOSIDA EMPIRIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Tirkashov M.

Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: o‘quvchi, kuzatish metodi, eksperiment metodi, natijalarni qayta ishlash metodlari, natijalarni qayta ishlash metodlar, axborot-tahliliy yondashuv, empirik tushuncha, tahliliy yondashuv.


Ключевые слова: учащиеся, метод наблюдения, метод эксперимента, методы обработки результатов, информационно-аналитический подход, эмпирическое понимание, аналитический подход.

Key words: reader, observation method, experimental method, results processing methods, results processing methods, information-analytical, empirical understanding, analytical approach.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda axborot-tahliliy yondashuv asosida empirik tushunchalarni shakllantirish tizimini tavsiflashda empirik tushunchalarni shakllantirish bosqichlariga tayandik. Ya‘ni o‘quvchilarda ta‘lim jarayonida empirik tushunchalarni shakllantirish jarayonini quyidagi to‘rtta yo‘nalishda amalga oshirishni nazarda tutdik:

So‘nggi yillarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tabiatga ijobiy munosabatni, g‘amxo‘rlikni shakllantirish uchun ularda tabiiy fanlarni o‘rganishda emotsional va ongli yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli e‘tibor qaratilmoqda. Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish ularda tabiatga va tabiiy hodisalarga nisbatan loqaydlikni yuzaga keltirishi mumkin. Aynan so‘nggi yillarda tabiiy fanlarni o‘qitishga nisbatan mana shunday bir tomonlama yondashuv kuzatilayapti. Kuzatish metodi esa o‘quvchilarda tabiatga munosabatni, kuzatish madaniyatini, estetik va ekologik dunyoqarashni tarkibtoptirishga yordam beradi.

Kuzatish metodi tabiatni o‘rganish metodi sifatida faqat bugungi kunda qo‘llanilmasdan, juda uzoq vaqtdan buyon qo‘llanilib kelinmoqda. Jumladan, Sharq



mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy asarlarida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga doir qarashlari kuzatish natijasida yuzaga kelgan empirik bilimlar natijasida yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. G'arb mamlakatlari olimlari XVIII asrdayoq kuzatish metodidan tadqiqot jarayoni va bilimlarni o'zlashtirishda asosiy usul sifatida foydalanib kelishgan. V.F.Zuyev, A.Y.Gerd, V.P.Vaxterov, I.I.Polyanskiy kabi olimlar asarlarida ham kuzatish va kuzatuvchanlikning ahamiyati borasida to'xtalib o'tilgan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, kuzatish metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarida empirik tushunchalarni shakllantirishda qulay va samarador amaliy metodlardan bo'lib hisoblanadi.

Eksperiment metodi. "Eksperiment" so'zi yunon tilidan olingan bo'lib "tajriba, sinov" ma'nolarini anglatadi.

Eksperiment bu qandaydir bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan tajriba yoki ilmiy tajriba. Uning kechish jarayoni va natijasini muntazam kuzatib borish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratiladi. Kuzatishdan farqli ravishda eksperiment nazariyaga asoslanadi, uni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi, tajriba jarayoniga faol ishtirok etiladi va olingan ma'lumotlar, natijalar tahlil qilib boriladi. Fanda eksperiment rejali amalga oshirilishi hamda hissiy-predmetli jarayon sifatida hamda avvaldan belgilangan gipotezani isbotlash usuli sifatida talqin etiladi.

Ta'limiy eksperiment – dars jarayonida o'qituvchi, laborant yoki biror o'quvchi tomonidan o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazish maqsadida qo'llaniladi. U o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshiradi, ma'lum bir vazifalarni, topshiriqlarni ketma-ketlikda amalga oshirish, laboratoriya jihozlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Eksperimentning ushbu turi bir qancha pedagogik talablar asosida tashkil etilishi lozim bo'ladi:

1. Eksperiment o'tkazilayotgan joy barcha o'quvchilar ko'rishi uchun qulay bo'lishi lozim. Ya'ni eksperiment o'tkaziladigan stol (yoki joy) balandroq, ortiqcha



jihozlardan xoli, harakat qilish uchun qulay bo‘lishi va barcha ishtirokchilar uni kuzatishlariga moslashtirilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Eksperiment o‘tkazish tartibi oddiy, ortiqcha effektlardan xoli bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning e’tibori asosiy masaladan chetlashmasligiga e’tibor qaratish kerak.

3. Eksperiment o‘tkazishning xavfsizligi. O‘qituvchi tajriba davomida o‘quvchilarning xavfsizligi uchun mas’ul hisoblanadi. Shu sababli ham eksperiment o‘tkaziladigan joyda texnika xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi jihozlari mavjud bo‘lishi hamda o‘quvchilarni tajriba o‘tkazish jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan xavfsizlik choralari bilan tanishtirib borish talab etiladi. Xavfli tajribani o‘tkazishda esa himoya ekranidan yoki maxsus shkafda o‘tkazish lozim bo‘ladi.

4. Eksperiment natijalarining ishonchiligi. Ta’lim jarayonida o‘tkaziladigan eksperiment natijalari o‘quvchilarni qiziqtiradi. Shu sababli ham eksperiment o‘tkazishdan avval nazariy jihatdan o‘rganib chiqish, eksperiment natijasini avvaldan prognoz qilish lozim. Agarda tajriba natijasida kutilgan natijaga erishilmaydigan bo‘lsa, buning sababi o‘quvchilarga tushuntirib beriladi va keyingi darsda tajriba qayta o‘tkaziladi.

5. Eksperiment jarayonining izohlanishi. Har qanday o‘tkazilayotgan tajriba jarayoni o‘qituvchi tomonidan izohlanib borishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilar bilan olib borilayotgan suhbat ham tajriba mazmunini tushunarli bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosalash metodi kuzatish yoki tajriba davomida to‘plangan barcha ma’lumotlar haqida umumiy xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ma’lumotlarni umumlashtirish jarayoni ma’lum bir prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladi:

- induktiv xulosalash – to‘plangan bir qancha kichik ma’lumotlar asosida umumiy xulosa chiqarish;
- deduktiv xulosalash – yagona tushunchalar bir qancha kichik xulosalar tayyorlash tarzida amalga oshirilib, bu metod asosan o‘zlashtirilgan aniq bir nazariy xulosadan tajriba davomida o‘rganilgan ma’lumotlar yuzasidan xususiy xulosalar tayyorlashga yordam beradi;
- umumlashtirish – empirik tajriba davomida aniqlangan barcha ma’lumotlar yuzasidan umumiy xulosalar tayyorlash tarzida amalga oshiriladi. bunday xulosalarni tayyorlash o‘quvchilarga mustahkam bilimlarni o‘zlashtirish hamda empirik tushunchalarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Natijalarni qayta ishlash metodlari. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirishning navbatdagi metodi natijalarni qayta ishlash metodlari hisoblanadi.

Natijalarni qayta ishlash metodlari sirasiga natijalarni to‘plash, tasniflash, taqqoslash, qismlarga ajratish, qismlardan butunni shakllantirish, xulosalash kabi



metodlar kiradi. Ushbu metodlar empirik tashunchalarni shakllantirishga doir o'quv topshiriqlari asosida amalga oshiriladi.

Natijalarni to'plash empirik tushunchalarni shakllantirishda muhim bo'lib, ma'lumotlarning asosiligi, to'g'riligi va aniqligi empirik tushunchalar mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham natijalarni to'plashda bir qancha pedagogik shartlarga amal qilish lozim bo'ladi:

- nazariy ma'lumotlarga tayangan holda to'planishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlar tizimini aniqlashtirib olish;
- ma'lumotlarni aniq qayd etish;
- aslini yoki tasvirlarini, audio va video yozuvlarni saqlash;
- natijalarni to'plashda ma'lumotlarning (tasvirlarning) aniqligiga e'tibor qaratish.

ini qo'llashdan asosiy maqsad:

- tajriba obyektining muhim xususiyat va belgilarini ajratib ko'rsatish;
- tajriba obyektlari o'rtasidagi o'zaro farqli va o'xshash jihatlarini ajratib ko'rsatish;
- empirik topshiriqlarni b) Natijalarni qayta ishlash metodlarajarish uchun ma'lumot to'plash;
- empirik tushunchalarni o'zlashtirish.

Xulosasifatida aytishimiz joizki, axborot tahliliy yondashuv asosida o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish metodlari empirik bilish metodlariga mos tarzda kuzatish, eksperiment, natijalarni qayta ishlash va xulosalash guruhlariga ajratgan holda tizimlashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. Sangirova Z.B., Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Avezov M.M., Baymuratova M.X., Xasanova S.G'. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent: Yangiyo'l Poligraph Service. – 2022. 134 b.
2. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.-224 b.
3. Qahhorov S.Q., Jo'rayev H.O. Mediata'limning rivojlanish bosqichlari // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2017. №1. – B. 36–39.
4. Nishonova Z.T., Kamolova N.G', Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: Print 25. bosmaxonasi. 2019.-216 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda empirik tushunchalarni shakllantirish to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о формировании императивных понятий в процессе обучения учащихся в процессе начального образования.

SUMMARY

This article provides information about the formation of imperative concepts in the process of teaching students in the process of primary education.